<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA JUST-IN-TIME TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ... ..	981
<b>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</b>	
KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI .....	986
<b>Djumayeva Guzal Axtamovna, Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li</b>	
XOM ASHYO VA MATERIALLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	990
<b>Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Rafikova Aziza Xurshid qizi</b>	
AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (Navoiy viloyati misolida) .....	994
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b>	
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1000
<b>Ibragimov Suxrob Latifovich</b>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	1004
<b>Ismailova Nilufar Sabitdjanovna</b>	
СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМОВКИ ТРУБ СРЕДНЕГО И БОЛЬШОГО ДИАМЕТРА .....	1010
<b>Юсупов А.А., Райимкулов С.Х.</b>	
TURIZM XIZMATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDAGI RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH.....	1015
<b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</b>	
DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOIV MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
<b>Xasanov Jahongir Botir o'g'li</b>	
PAHTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
<b>Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	1030
<b>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ» .....	1036
<b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
<b>Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.....	1059
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI....	1067
<b>Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
<b>Hazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich</b>	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI .....	1077
<b>Y.M. Xalikov</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI .....	1085
<b>Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	1091
<b>Мухторов М. Н., Каримова А. М.</b>	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА .....	1098
<b>Дониерова Фотимабону Алишер қизи</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
<b>Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
<b>Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li</b>	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1124
<b>Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
<b>Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
<b>Эгамова Махфурат Эсановна</b>	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
<b>Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	1156
<b>Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna</b>	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
<b>Kodirova Samira Kamol qizi</b>	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	1169
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	1175
<b>Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI .....	1181
<b>Kazakova Zulayho, Saida'zamova Nilufar, Isroilov Shohruh</b>	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
<b>Jalolova Madina Shopo'lat qizi</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА .....	1192
<b>Шермухамедов Акмал Комилжонович</b>	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
<b>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</b>	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
<b>Umarov Xasan Sunnatullaevich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII .....	1210
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	1221
<b>Jalolov Abbasxon Ravshaxon o'g'li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI .....	1233
<b>Sabirov Mirza Qilichbayevich</b>	
Zararli dasturiiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
<b>Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich</b>	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	1244
<b>No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
<b>Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li</b>	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
<b>Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li</b>	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....	1263
<b>Solihova Xumora Xasan qizi</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH .....	1274
<b>Saidov Doniyor Abdullayevich</b>	



# TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH

**Saidov Doniyor Abdullayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bank ishi kafedrası dotsenti

E-mail: [saidovdoniyor2022@gmail.com](mailto:saidovdoniyor2022@gmail.com)

ORCID: 0009-0007-3605-2274

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklari aktiv va passivlari muvofiqligini ta'minlash hamda ularni samarali boshqarish masalalari iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda aktiv va passivlarni boshqarish bank likvidligi, daromadligi, moliyaviy barqarorligi va risklarni kamaytirishning muhim omili sifatida qaraladi. Tijorat banklari aktiv va passivlari muvofiqligini ta'minlash uchun muddatli depozitlar ulushini oshirish, kreditlar va depozitlar nisbatini optimallashtirish, likvidlik zaxiralari mustahkamlash, resurs bazasini diversifikatsiya qilish hamda zamonaviy ALM tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** aktivlar, passivlar, likvidlilik, depozitlar, kreditlar, GAP-tahlil, aktiv va passivlar muvofiqligi, bank kapitali, moliyaviy barqarorlik, ALM tizimi, bank resurslari, kredit portfeli, investitsiyalar.

**Аннотация.** В данной статье проведён экономический анализ вопросов обеспечения соответствия активов и пассивов коммерческих банков, а также их эффективного управления. В исследовании управление активами и пассивами рассматривается как важный фактор обеспечения ликвидности, прибыльности, финансовой устойчивости банка и снижения рисков. Разработаны предложения по повышению доли срочных депозитов, оптимизации соотношения кредитов и депозитов, укреплению резервов ликвидности, диверсификации ресурсной базы и совершенствованию современной системы ALM для обеспечения сбалансированности активов и пассивов коммерческих банков.

**Ключевые слова:** активы, пассивы, ликвидность, депозиты, кредиты, GAP-анализ, соответствие активов и пассивов, банковский капитал, финансовая устойчивость, система ALM, банковские ресурсы, кредитный портфель, инвестиции.

**Abstract.** This article provides an economic analysis of the issues related to ensuring the consistency of commercial banks' assets and liabilities and their effective management. The study considers asset and liability management as a key factor in maintaining bank liquidity, profitability, financial stability, and risk mitigation. Recommendations have been developed to increase the share of term deposits, optimize the loans-to-deposits ratio, strengthen liquidity reserves, diversify the resource base, and improve the modern Asset and Liability Management (ALM) system to ensure the balance between commercial banks' assets and liabilities.

**Keywords:** assets, liabilities, liquidity, deposits, loans, GAP analysis, asset-liability matching, bank capital, financial stability, ALM system, banking resources, loan portfolio, investments.

## KIRISH

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish bankning foyda darajasini pasaytirmasdan likvidlilikni ta'minlashga qaratilgan usullar va tartiblar yig'indisi bo'lib, bankning moliyaviy barqarorligi, majburiyatlarini bajarishi va faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy jarayondir. Xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari va usullarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

tijorat banklari depozitlari va kreditlari miqdorining o'sishi tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Bank tomonidan depozitlar bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalari, shuningdek, kreditlar bo'yicha undirish uchun belgilangan foiz stavkalari bankning depozit va kredit operatsiyalari hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, banklarning foiz siyosati ularning likvidlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Agar bu foiz kredit bilan bog'liq bo'lsa hamda u oshadigan bo'lsa, unda banklarning likvidlilik darajasi ham yuqori bo'ladi. Agar foiz stavkasi depozit bilan bog'liq bo'lsa va depozitlarning foiz stavkasi pasayadigan bo'lsa, unda banklarning likvidlilik mazkur depozitlarning muddatiga bog'liq bo'lib qoladi. Agar uzoq muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik oshadi, qisqa muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik pasayadi.

Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishning zamonaviy vositalarini aniqlash va bank amaliyotiga



tatbiq etish ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish bankning foyda darajasini pasaytirmasdan likvidlilikni ta'minlashga qaratilgan usullar va tartiblar yig'indisi bo'lib, bankning moliyaviy barqarorligi, majburiyatlarini bajarishi va faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy jarayondir. Xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari va usullarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Tijorat banklari depozitlari va kreditlari miqdorining o'sishi tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Bank tomonidan depozitlar bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalari, shuningdek, kreditlar bo'yicha undirish uchun belgilangan foiz stavkalari bankning depozit va kredit operatsiyalari hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, banklarning foiz siyosati ularning likvidlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Agar bu foiz kredit bilan bog'liq bo'lsa hamda u oshadigan bo'lsa, unda banklarning likvidlilik darajasi ham yuqori bo'ladi. Agar foiz stavkasi depozit bilan bog'liq bo'lsa va depozitlarning foiz stavkasi pasayadigan bo'lsa, unda banklarning likvidliliqi mazkur depozitlarning muddatiga bog'liq bo'lib qoladi. Agar uzoq muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik oshadi, qisqa muddatli depozitlar oshsa, likvidlilik pasayadi.

Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishning zamonaviy vositalarini aniqlash va bank amaliyotiga tatbiq etish ularning faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu doirasida ilmiy tadqiqot olib borishda taqqoslama tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy taqqoslash hamda nazariy va amaliy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida depozitlar ulushining oshishi, muddatli depozitlar hajmining ko'payishi va olingan kreditlar ulushining pasayishi aktiv va passivlar muvofiqligini ta'minlashda ijobiy tendensiya hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar ulushining yuqoriligi va ularning muddatli depozitlardan ancha yuqori ekani muddatlar bo'yicha nomutanosiblik xavfini saqlab qolmoqda.

Kreditlar va depozitlar nisbati ham muhim natijani ko'rsatadi. 2021-yilda jami berilgan kreditlar depozitlarga nisbatan yuqori darajada bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu nisbat pasaygan. Bu banklarning depozit bazasi tezroq o'sganini va kreditlashni moliyalashtirishda ichki resurslar ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq 2025-yilda ham jami kreditlar 604002,2 mlrd so'm, jami depozitlar esa 417258,2 mlrd so'mni tashkil etgani sababli kreditlar depozitlardan yuqori bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda tijorat banklari aktivlari va passivlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Bank aktivlari hajmi kengaygan, depozit bazasi mustahkamlangan, investitsion aktivlar ulushi oshgan va kapital bazasi o'sgan. Bu holat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotni moliyalashtirish imkoniyatlari ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, aktiv va passivlar muvofiqligida ayrim muammoli jihatlar saqlanib qolmoqda. Jumladan, uzoq muddatli kreditlar ulushining yuqoriligi va ularni moliyalashtiruvchi uzoq muddatli resurslar hajmining nisbatan cheklanganligi banklarda muddatlar nomutanosibliki xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababli tijorat banklari aktiv va passivlarni boshqarishda uzoq muddatli depozitlarni ko'paytirish, qimmatli qog'ozlar orqali resurs jalb qilish, likvidlik zaxiralarini yetarli darajada saqlash va ALM tizimini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim (1-jadval).

### 1-jadval

#### Tijorat banklari aktivlari tarkibi [9]

Ko'rsatkichlar nomi	2021-y.		2022-y.		2023-y.		2024-y.		2025-y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	10686	2,4%	19309	3,5%	20202	3,1%	25154	3,3%	25617	2,8%

Markaziy bankdagi mablag'lar	31515	7,1%	36592	6,6%	33228	5,1%	34512	4,5%	43925	4,7%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	13302	3,0%	17424	3,1%	24368	3,7%	29176	3,8%	27713	3,0%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	25074	5,6%	37688	6,8%	28863	4,4%	36039	4,7%	51738	5,6%
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	<b>19634</b>	<b>4,4%</b>	<b>31508</b>	<b>5,7%</b>	<b>32548</b>	<b>5,0%</b>	<b>59614</b>	<b>7,7%</b>	<b>102979</b>	<b>11,1%</b>
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1251	0,3%	1606	0,3%	3334	0,5%	432	0,1%	778	0,1%
Kredit qo'yilmalari, (sof)	<b>316382</b>	<b>71,1%</b>	<b>378909</b>	<b>68,1%</b>	<b>457847</b>	<b>70,2%</b>	<b>514693</b>	<b>66,9%</b>	<b>587039</b>	<b>63,5%</b>
Asosiy vositalar, (sof)	11032	2,5%	14243	2,6%	19875	3,0%	24956	3,2%	29894	3,2%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	<b>9387</b>	<b>2,1%</b>	<b>12295</b>	<b>2,2%</b>	<b>19250</b>	<b>3,0%</b>	<b>23836</b>	<b>3,1%</b>	<b>27973</b>	<b>3,0%</b>
Bankning boshqa xususiy mulklari	1339	0,3%	3066	0,6%	4484	0,7%	6559	0,9%	9613	1,0%
Boshqa aktivlar	5320	1,2%	4106	0,7%	8159	1,3%	14360	1,9%	17494	1,9%
<b>Jami aktivlar</b>	<b>444922</b>	<b>100%</b>	<b>556746</b>	<b>100%</b>	<b>652157</b>	<b>100%</b>	769330	100%	924763	100%

Yuqoridagi jadvalda 2021–2025-yillarda tijorat banklari jami aktivlari 444922 mlrd so'mdan 924763 mlrd so'mgacha oshgan. Bu davrda aktivlar hajmi qariyb 2,1 baravarga ko'paygan. Ushbu o'sish bank tizimida moliyaviy resurslar hajmining kengaygani, kreditlash va investitsion operatsiyalar faollashganini ko'rsatadi.

Aktivlar tarkibida eng katta ulushni kredit qo'yilmalari tashkil etmoqda. 2021-yilda kredit qo'yilmalari 316 382 mlrd so'm yoki jami aktivlarning 71,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 587 039 mlrd so'mga yetgan. Biroq uning aktivlardagi ulushi 63,5 foizgacha pasaygan. Bu holat bank aktivlari tarkibida diversifikatsiya kuchayganini, ya'ni banklar faqat kredit operatsiyalariga emas, balki qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlarga ham ko'proq mablag' yo'naltirayotganini anglatadi.

Ayniqsa, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmining o'sishi e'tiborga molik. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 19634 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 102979 mlrd so'mga yetgan. Uning jami aktivlardagi ulushi 4,4 foizdan 11,1 foizgacha oshgan. Bu banklar aktivlarini diversifikatsiya qilish, likvid va daromadli moliyaviy instrumentlardan foydalanishga intilayotganini ko'rsatadi (2-jadval).

## 2-jadval

### Tijorat banklari passivlari tarkibi [9]

Ko'rsatkichlar nomi	2021-y.		2022-y.		2023-y.		2024-y.		2025-y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
<b>Majburiyatlar</b>										
Depozitlar	156190	41,8%	216738	45,4%	241687	43,5%	308692	47,2%	417258	52,9%
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	709	0,2%	784	0,2%	1345	0,2%	1727	0,3%	1149	0,1%



Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	13289	3,6%	18781	3,9%	24577	4,4%	25008	3,8%	28993	3,7%
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	4671	1,2%	22798	4,8%	20074	3,6%	16428	2,5%	18086	2,3%
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	173750	46,5%	186614	39,1%	224351	40,4%	234667	35,9%	247691	31,4%
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	10613	2,8%	10915	2,3%	13161	2,4%	29095	4,4%	37246	4,7%
Subordinar qarzlilar	4248	1,1%	6619	1,4%	9653	1,7%	11299	1,7%	11972	1,5%
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	3960	1,1%	5487	1,1%	8106	1,5%	9823	1,5%	9591	1,2%
Boshqa majburiyatlar	6575	1,8%	8444	1,8%	12125	2,2%	17798	2,7%	17438	2,2%
<b>Jami majburiyatlar</b>	<b>374005</b>	<b>100%</b>	<b>477181</b>	<b>100%</b>	<b>555078</b>	<b>100%</b>	<b>654538</b>	<b>100%</b>	<b>789424</b>	<b>100%</b>
<b>Jami kapital</b>										
Ustav kapitali	54760	77,2%	59857	75,2%	68643	70,7%	83666	72,9%	94404	69,8%
Qo'shimcha kapital	675	1,0%	997	1,3%	1339	1,4%	1464	1,3%	1464	1,1%
Zaxira kapitali	8452	11,9%	7321	9,2%	11153	11,5%	13067	11,4%	14843	11,0%
Taqsimlanmagan foyda	7030	9,9%	11391	14,3%	15945	16,4%	16596	14,5%	24629	18,2%
<b>Jami kapital</b>	<b>70918</b>	<b>100%</b>	<b>79565</b>	<b>100%</b>	<b>97079</b>	<b>100%</b>	<b>114792</b>	<b>100%</b>	<b>135339</b>	<b>100%</b>

Passivlar tarkibida asosiy manba sifatida depozitlar va olingan kreditlar hamda lizing operatsiyalari muhim o'rin tutadi. 2021-yilda depozitlar 156190 mlrd so'm yoki majburiyatlarning 41,8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 417258 mlrd so'mga yetgan va ulushi 52,9 foizgacha oshgan.

Bu banklar resurs bazasida depozitlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Depozitlar ulushining o'sishi banklar uchun ijobiy holat hisoblanadi, chunki depozitlar bank faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan barqaror ichki manbalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, olingan kreditlar va lizing operatsiyalari ulushi 2021-yilda 46,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 31,4 foizgacha pasaygan. Bu banklarning tashqi va qarz mablag'lariga bog'liqligi kamayib, ichki depozit resurslari hisobiga moliyalashtirish imkoniyati kengayganini anglatadi.

Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi ham sezilarli o'sgan. 2021-yilda ular 10613 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 37246 mlrd so'mga yetgan. Uning majburiyatlardagi ulushi 2,8 foizdan 4,7 foizgacha oshgan. Bu banklar resurs jalb qilishda kapital bozori instrumentlaridan ham foydalanayotganini bildiradi.

2021–2025-yillarda tijorat banklari jami kapitali 70918 mlrd so'mdan 135339 mlrd so'mgacha oshgan. Bu banklarning kapital bazasi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Kapitalning aktivlarga nisbati 2021-yilda 15,9 foiz, 2025-yilda esa 14,6 foiz atrofida bo'lgan. Demak, aktivlar tez o'sgan bo'lsa-da, kapital ham nisbatan barqaror darajada saqlangan.

Kapital tarkibida ustav kapitali asosiy o'rinni egallaydi. 2025-yilda u 94404 mlrd so'mni yoki jami kapitalning 69,8 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga, taqsimlanmagan foyda ulushi 2021-yilda 9,9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 18,2 foizga yetgan. Bu banklarning foyda hisobidan ichki kapitallashuvi kuchayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

## 3-jadval

**Tijorat banklari kredit qo'yilmalarini muddatiga ko'ra tahlili[9]**

Kreditlar	2021-y.		2022-y.		2023-y.		2024-y.		2025-y.	
	Summa (mlrd. so'm)	salmog'i (% da)	Summa (mlrd. so'm)	salmog'i (% da)	Summa (mlrd. so'm)	salmog'i (% da)	Summa (mlrd. so'm)	salmog'i (% da)	Summa (mlrd. so'm)	salmog'i (% da)
<b>Qisqa muddatli kreditlar</b>	33379,5	10,2	51130,0	15,1	61195,4	13,0	76032,7	14,3	72189,0	12,0
<b>Uzoq muddatli kreditlar</b>	293006,1	89,8	338918,9	84,9	410210,2	87,0	457088,5	85,7	531813,2	88,0
<b>Jami berilgan kreditlar</b>	326385,6	100	390048,9	100	471405,6	100	533121,2	100	604002,2	100

Kreditlar muddatiga ko'ra tahlil qilinganda, bank kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar mutlaq ustunlikka ega ekani ko'rinadi. 2021-yilda uzoq muddatli kreditlar 293 006,1 mlrd so'm yoki jami kreditlarning 89,8 foizini tashkil etgan. 2025-yilda esa ular 531 813,2 mlrd so'mga yetgan va ulushi 88,0 foizni tashkil qilgan.

Qisqa muddatli kreditlar ulushi esa 2021-yilda 10,2 foiz, 2025-yilda 12,0 foiz bo'lgan. Bu bank kredit portfelida uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish ustuvor ekanini ko'rsatadi. Biroq bu holat passivlar muddatlari bilan muvofiqlashtirilmasa, likvidlik va muddatlar nomutanosibli xavfini keltirib chiqarishi mumkin (4-jadval).

## 4-jadval

**Tijorat banklaridagi depozitlar qoldig'i [9]**

Sana	Jami	shu jumladan:		
		talab qilib olinguncha	jamg'arma	muddatli
2021-y.	156 189,8	69 207,7	13 746,4	73 235,7
2022-y.	216 737,5	100 683,3	23 289,8	92 764,5
2023-y.	241 686,6	88 036,0	24 051,2	129 599,4
2024-y.	308 692,3	104 887,5	29 247,9	174 556,8
2025-y.	417 258,2	128 807,9	55 419,0	233 031,3

Ushbu jadvalda depozitlar tarkibi tahlil etilgan bo'lib, 2021-yilda jami depozitlar 156189,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 417258,2 mlrd so'mga yetgan. Bu davrda depozitlar hajmi qariyb 2,7 baravarga oshgan.

Talab qilib olinguncha depozitlar 2021-yilda depozitlarning taxminan 44,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 30,9 foizgacha pasaygan. Aksincha, muddatli depozitlar ulushi 2021-yilda 46,9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 55,8 foizga yetgan. Bu banklar passivlari barqarorligi oshganini ko'rsatadi, chunki muddatli depozitlar banklarga uzoqroq muddatli moliyalashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, jamg'arma depozitlari ham 2021-yilda 13746,4 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 55419,0 mlrd so'mga yetgan. Bu aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatida aktivlar va passivlar muvofiqligini ta'minlash bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi, daromadliligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank aktivlari asosan kreditlar, investitsiyalar, kassa mablag'lari va boshqa daromad keltiruvchi resurslardan tashkil topsa, passivlar esa jalb qilingan depozitlar, banklararo kreditlar, ustav kapitali va boshqa majburiyatlardan iboratdir. Ushbu ikki yo'nalish o'rtasidagi mutanosiblik bankning uzoq muddatli samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tijorat banklari aktiv va passivlari muvofiqligini ta'minlash hamda ularni



samarali boshqarish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Aktiv va passivlarni muddatlar bo'yicha muvofiqlashtirishni kuchaytirish lozim.

Bank passivlari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlari ulushini yanada oshirish lozim.

Kreditlar va depozitlar nisbatini optimallashtirish kerak.

Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tahlil dasturlaridan keng foydalanish lozim. Bu aktiv va passivlar holatini real vaqt rejimida kuzatish, risklarni tezkor aniqlash va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkonini beradi.

Bank aktivlari va passivlarining muddatlar bo'yicha muvofiqligini ta'minlash zarur. Qisqa muddatli passivlar hisobidan uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish hajmini cheklash, uzoq muddatli depozitlar va barqaror resurs manbalarini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiya qilishi lozim. Ya'ni, bank faqat depozitlarga bog'lanib qolmasdan, obligatsiyalar chiqarish, xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish, banklararo bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari aktiv va passivlari muvofiqligini ta'minlash nafaqat alohida bankning barqarorligi, balki butun bank tizimi va milliy iqtisodiyotning moliyaviy mustahkamligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rouz P.S. Bankovskiy menedjment / ingliz tilidan tarjima. – 1997. – B. 477.
2. Dolan E.J., Campbell C.D., Campbell R.J. Dengi, bankovskoe delo i denejno-kreditnaya politika / ingliz tilidan tarjima; V. Lukashevich va boshq.; V. Lukashevich muharrirligi ostida. – M., 1996. – B. 88.
3. Sinki J.F., kichik. Upravlenie finansami v kommercheskix bankax / ingliz tilidan 4-nashr tarjimasi; B.S. Pinsker tarjimasi. – M.: Catallaxy, 1994. – B. 392.
4. Lavrushin O.I. Upravlenie deyatelnostyu kommercheskogo banka (bankovskiy menedjment). – M.: Yurist, 2003. – B. 368.
5. Abdullayeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank ishi: darslik. 1-qism. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 732 b.
6. Alimardonov I.M., Shomurodov R.T., Majidov J.K. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish: darslik. – T.: "Nihol Print" OK, 2021. – 216 b.
7. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish: o'quv qo'llanma. – Samarqand: "SamDU nashriyoti", 2020. – 271 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni ma'lumotlari. – 2022–2025-yillar.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)